

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” Davlat muassasasi “Zarafshon”
Hududiy boshqarmasi “Gornyak” sport-sog‘lomlashtirish pansionatining
“Jismoniy-sog‘lomlashtirish kompleksi”ga elektr qozonlarini o‘rnatish ishlari
xaridi bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Navoiy sh.
2022 y.

1-Bo'lim.

BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMI VA MAQSADI

“NKMK jamg'armasi” DM “Zarafshon” Hududiy boshqarmasi “Gornyak” sport-sog'lomlashtirish pansionatining “Jismoniy-sog'lomlashtirish kompleksi”ga elektr qozonlarini o'rnatish.

2-Bo'lim.

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH UCHUN ASOS

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun asos O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 219-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbiri to'g'risida”dagi PQ-4422-sonli qarori, 2022-yilda “NKMK jamg'armasi” Davlat muassasasi energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”.

3-Bo'lim.

ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI

1. “NKMK jamg'armasi” DM “Zarafshon” Hududiy boshqarmasi “Gornyak” sport-sog'lomlashtirish pansionatining “Jismoniy-sog'lomlashtirish kompleksi”ga elektr qozonlarini o'rnatish.
2. Elektr qozonlarini o'rnatish uchun quyidagilar Bajaruvchi hisobidan amalga oshiriladi:
 - 2.1. Zanglamas po'latdan yasalgan TEN Backer (Chexiya) bilan jihozlangan quvvati 240 kVt, 4 boshqichli kuchlanish, bir nechta xavfsizlik darajasiga ega bo'lgan EVAN EPO (Rossiya) elektr qozoni – 1 dona
 - 2.2. Zanglamas po'latdan yasalgan TEN Backer (Chexiya) bilan jihozlangan quvvati 120 kVt, 6 boshqichli kuchlanish, bir nechta xavfsizlik darajasiga ega bo'lgan EVAN PRACTIC (Rossiya) elektr qozoni – 2 dona
 - 2.3. Zanglamas po'latdan yasalgan TEN Backer (Chexiya) bilan jihozlangan quvvati 105 kVt, 6 boshqichli kuchlanish, bir nechta xavfsizlik darajasiga ega bo'lgan EVAN PRACTIC (Rossiya) elektr qozoni – 1 dona
 - 2.4. 500 litr hajmli emallangan isitish qozoni. (Boylar) xajmi 2,20 m³; unumdorligi 840 l/soat (T1=+10/+45°C, T2=+90/+70°C da); o'lchamlari: diametri - 700 mm, balandligi - 1910 mm – 2 dona
 - 2.5. Kimyoviy suv tozalash tizimi (suv yumshatuvchi) avtomatik boshqaruv 1,0 m³/soat – 1 komp.
 - 2.6. Isitish tizimi uchun tarmoq nasosi. Q=22,5 m³/s; H=4 m; N=2,2 kVt; 1450 obr/min – 2 dona
 - 2.7. Qozon blokining past haroratli korroziyasida himoya qilish uchun aralashtirish nasosi Q=7,4 m³/s; H=4m; N__ kVt – 1 dona
 - 2.8. Serpantinli tank suv isitgichini oziqlantirish uchun aylanma nasos Q=7,4 m³/s; H=4m; N__ kVt – 1 dona
 - 2.9. Suzish havzasini isitish tizimi uchun aylanma nasos Q=7,4 m³/s; H=4m; N__ kVt – 1 dona
 - 2.10. Zanglamaydigan po'latdan yasalgan plastinka issiqlik almashtirgich 100 kVt – 1 dona
 - 2.11. Membranani kengaytirish tanki (rasshiritelnyy bak); o'lchami - 500 l, ishchi bosimi - 10 bar (Turkiya) – 1 dona
 - 2.12. Membranani kengaytirish tanki (rasshiritelnyy bak); o'lchami - 500 l, ishchi bosimi - 10 bar (MKT100 Turkiya) – 2 dona
 - 2.13. O'chirish va nazorat qilish klapanlari (fitinglar, termometrlar, monometrlar, klapanlar va boshqalar) bilan barcha qurilmalarni ta'minlashi zarur
 - 2.14. Barcha elektr qozonlari va issiqlik almashtiruvchilar o'rnatish uchun sarflanadigan materiallar (quvur, kabel, izolyatsiyasi) va boshqalar.

4-Bo'lim.

ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH JOYI

Ishlar, xizmatlar ko'rsatish joyi:

Navoiy viloyati, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Yusufxona pasyolkasida joylashgan "Gornyak" sport-sog'lomlashtirish pansionati.

5-Bo'lim.

ISH BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

Elektro qozonlarini o'rnatish, Bajaruvchi/xizmat ko'rsatuvchi tashkilot yong'in xavfsizligi, sanoat xavfsizligi va boshqa huquqiy normalar asosida ish olib borishni ta'minlashi zarur, o'rnatiladigan va sarflanadigan tovar-moddiy boyliklar Buyurtmachi mutaxassisi ishtirokida o'rnatish ishlarini amalga oshiradi.

6-Bo'lim.

ISHTIROKCHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Ishtirokchilar Buyurtmachiga 1-Jadvalga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari zarur. Bajaruvchi tashkilotni tanlash quyida keltirilgan mezonlardan kelib chiqib amalga oshiriladi:

1-Jadval

| T/R | Mezonlar | Tasdiqlovchi hujjatlar |
|-----|---|--|
| 1 | Bajaruvchi tomonidan o'rnatilgan barcha texnik qurilmalarga kamida 1 (bir) yil servis xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi va 1 (bir) yilga kafolatlovchi hujjatlar bo'lishi. | Bajaruvchi tomonidan har bir o'rnatilayotgan elektroqozon rusumlariga xodimlarning o'qitilganligini tasdiqlovchi maxsus guvohnoma yoki sertifikat nusxalari, servis xizmatlarini ko'rsatish uchun kafolat xati taqdim etilishi kerak |
| 2 | Bajaruvchi tomonidan texnik shartlarda va 3-bo'limda ko'rsatilgan texnik qurilmalar, (elektrqozonlar, sirkulyatsion nasoslar va boshqalar) bilan shartnoma imzolanib to'lov amalga oshirilgandan so'ng 10(o'n) kun muddatda ta'minlay olishi zarur. | Bajaruvchi tomonidan texnik shartlarda va ilovada ko'rsatilgan texnik qurilmalar, elektroqozonlar, sirkulyatsion nasoslar va boshqalar bilan belgilanagan 10(o'n) kun muddatda ta'minlay olishini tasdiqlovchi hujjatlar. |
| 3 | Bajaruvchi tomonidan shartnoma imzolanib to'lov amalga oshirilgandan so'ng 15(o'n besh) kun muddatda barcha jixoz va qurilmalar o'rnatilib ishga tushirilishi lozim. | Bajaruvchi tomonidan TMB, jixoz va qurilmalarning pasporti va tegishli sertifikatlarini tasdiqlangan hujjatlar asosida taqdim etilishi va o'rnatiladigan gazqozonlar rejim kartalarini taqdim etishi kerak. |
| 4 | Bajaruvchi ushbu sohada ish tajribasiga ega bo'lishi va ushbu sohada bajarilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar taqdim etilishi zarur. | Bajaruvchining tajribasini tasdiqlovchi hujjatlar (ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida hujjatlar, litsenziyasi, shartnomalar va bajarilgan ishlardan dalolatnomalar). |

Yuqorida keltirilgan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmaslik Buyurtmachiga ishtirokchining taklifini ko'rib chiqmaslik uchun asos yaratadi.

7-Bo'lim.

ISHLARNI BAJARISH VA XIZMAT KO'RSATISH MUDDATI

Muntazam issiq suv va issiqlik energiyasi bilan ta'minlash maqsadida lokal issiqlik beruvchi elektr

qozonlar o'rnatish ishlari boshlang'ich to'lov amalga oshirilgandan so'ng 15 kalendar kunida.

8-Bo'lim.

ISH VA XIZMATLAR BAJARILISHIDA XAVFSIZLIK TALABLARI VA ULARNING NATIJALARI

Ishlarni va xizmatlarni bajarishda bajaruvchi tashkilot O'zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligi va boshqa huquqiy normalar asosida ishlarni olib borishi, ish jarayonlarida maxsus texnik hujjatga ega qurilmalardan foydalanishi.

9-Bo'lim.

ISH VA XIZMATLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

Bajaruvchi buyurtmachiga barcha isitish tizimi texnik pasporti va sertifikatlarini taqdim etgandan so'ng, Bajaruvchi va Buyurtmachining vakolatli vakillari tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilish va topshirish sinovlari o'tkazilgandan so'ng dalolatnoma tuzgan holda tomonlarning imzolari orqali tasdiqlanadi, hamda ish tugallangan hisoblanadi.

10- BO'LIM.

TEXNIK VA BOSHQA HUJJATLARNI TOPSHIRISH BO'YICHA TALABLARI

Bajaruvchi Buyurtmachiga quyidagi hujjatlarni elektron va chop etilgan (tasdiqlangan) ko'rinishda

taqdim etishi kerak:

-Hisobotlar;

-Ish bajarganligi haqida dalolatnomalar;

-Nasos, elektroqozon qurilmalari pasporti, sertifikati va elektroqozonlar ishlatish rejim kartalari.

11-BO'LIM.

BAJARUVCHI TOMONIDAN BUYURTMACHI XODIMLARINI TEXNIK O'QITISH TALABLARI

Bajaruvchi ishni bajarish yakunlangandan so'ng, elektr qozonlari va nasos qurilmalarini shuningdek qurilmalarning ekspluatatsiya qilish jarayonlari haqida yetarli bilim berishi va tushuntirishlar olib borishi kerak.

12-Bo'lim.

ISH VA XIZMATLAR SIFATIGA QO'YILADIGAN KAFOLAT HAJMIGA TALABLAR

Suv isitish va issiqlik beruvchi manba elektr qozonlari, materiallar va nasosi uchun kafolat muddati 1 (bir) yil, texnik xizmat ko'rsatish 1 (bir) yil, elektroqozonlari va nasos qurilmalari texnik ko'rsatkichlar qurilma texnik pasportiga mos ishlashi zarur.

13-Bo'lim.

ISH VA XIZMATLAR NATIJALARINING SIFAT KAFOLATLARI MUDDATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA TALABLAR

Bajaruvchi har bir o'rnatilgan elektroqozonlari, materiallar va nasos qurilmasi uchun kamida 1 (bir) yil kafolat berishi va kafolat davrida nosozlik holati kuzatilsa, Bajaruvchi uni yangisiga almashtirishga yoki servis xizmati ko'rsatib bepul ta'mirlab berishga majbur, o'rnatilgan elektroqozonlari, materiallar, nasos qurilmasi va elektr kabellar 1 (bir) yil kafolat davrida Bajaruvchining aybi bilan yaroqsiz holga kelganda Bajaruvchi tomonidan yangisiga almashtirilishi zarur.

14- BO'LIM.
INTELLEKTUAL MULKKA MUTLAQ HUQUQLARNI O'TKAZISH SHARTLARINI
KO'RSATUVCHI MUALLIFLIK HUQUQI

Mavjud emas.

15-BO'LIM .
ISH, XIZMATLAR UCHUN BOSHQA TALABLAR

Mavjud emas.

16-Bo'lim.
TAQDIM ETILGAN AXBOROT SHAKLIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Taqdim etilgan barcha ma'lumotlar o'zbek yoki rus tilida bo'lishi kerak. Hujjatlarning, tahrirlash uchun elektron shakli va PDF formatidagi nazorat nusxasi bo'lishi kerak.

17- BO'LIM .
QABUL QILINGAN QISQARTMALAR RO'YXATI

| № p/p | Qisqartmalar ro'yxati | Qisqartmalarning toliq yoyilmasi |
|--------------|------------------------------|---|
| 1 | "NKMK jamg'armasi" DM | "Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasi |
| 2 | TMB | Tovar- moddiy boyliklar |

Ishlab chiqdi:

Ijrochi:

Texnik bo'lim elektromexanigi



B.U. Usmonov

Kelishilgan:

Texnik bo'limi boshlig'i



U.E. Vosiye" data-bbox="687 628 824 647"/>

Prognozlash va iqtisodiy tahlil bo'limi boshlig'i




N.U. Mustapayev

Bosh buxgalter



H.A. Chutdiyev

Yuridik xizmati boshlig'i




M.F. Muzaffarov

Xaridlarni rejalashtirish va zahiralarini boshqarish xizmati



M.M. Mirjonov

Kapital va joriy ta'mirlash bo'limi boshlig'i



S.O. Abdihakimov

